

IPAK YO‘LIDAGI QADIMGI SO‘G‘DLAR

絲綢之路上的粟特人

Rong Xinjiang

Muallif. (Pekin Universiteti Professori)

Hebibulla Tursun

Tarjimon. Pekin Universiteti o‘qituvchisi. tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14938701>



Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda shakllangan so‘g‘d qabilasi va ularning Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab tarqalishi, Xitoy xalqining tarixiy taraqqiyoti, madaniyati, san‘ati va etnik taraqqiyotidagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tarix, Buyuk Ipak yo‘li, etnik taraqqiyot, Zardo‘shiylik, So‘g‘d, Sabao, Sarkofag, Epitafiya.

ANCIENT SOGDIANS ON THE SILK ROAD

Abstract. This article talks about the Sogd tribe formed in Central Asia and their spread along the Great Silk Road, their place in the historical development, culture, art and ethnic development of the Chinese people.

Key words: history, Great Silk Road, ethnic development, Zoroastrianism, Sogdian, Sabao, Sarcophagus, Epitaph.

ДРЕВНИЕ СОГДИЙЦЫ НА ШЕЛКОВОМ ПУТИ

Аннотация. В статье говорится о племени согдийцев, образовавшемся в Средней Азии, и их распространении по Великому Шелковому пути, их месте в историческом развитии, культуре, искусстве и этническом развитии китайского народа.

Ключевые слова: история, Великий Шелковый путь, этническое развитие, зороастризм, Согдийцы, Сабао, Саркофаг, Эпитафия.

Rong Xinjiang (荣新江, Pekin Universitetining tarix kafedrasi va qadimgi Xitoy tarixi tadqiqot markazi professori, Xitoy Ta‘lim vazirligining Changjiang olimlari bo‘yicha taniqli

professori, Britaniya Akademiyasi (FBA) muxbir a'zosi, Xitoy Dunhuang-Turpan jamiyati prezidenti va Pekin Universiteti tarix bo'limi ilmiy qo'mitasi direktori. Uning "Xo'tan tarixining tsenzurasi", "Guyi qo'shini tarixi bo'yicha tadqiqotlar", "Chet eldagi Dunhuang va Turpan hujjatlari haqida ma'lumot", "Dunhuangshunoslik bo'yicha o'n sakkizta ma'ruza", "Zhang Tsiandan Mark Polog'acha: Ipak yo'lidagi o'n sakkiz ma'ruza" va boshqa asarlari muallifidir. Uning asosiy ilmiy yo'nalishlari Xitoy-tashqi munosabatlar tarixi, Ipak yo'li, Sui va Tang sulolalari tarixi, O'rta Osiyo tarixi, Dunhuang-Turpanshunoslik va boshqalar.

Xitoy tarixiy ma'lumotlarida so'g'dlar g'uz, so'g'diy va boshqa nomlar bilan mashhurdirlar.

Etnik jihatdan ular Eron ulusiga mansub qadimiy Markaziy Osiyo xalqi; til jihatidan Hind-Evropa tillari oilasiga mansub eroniy tillar oilasining Sharqiy Eron bo'limida, ya'ni so'g'd tilida so'zlashgan; ularning yozuvlari Oromi yozuvlaridan foydalaniladi, hozir keng tarqalgan. So'g'd yozuvi nomi bilan mashhurdir. So'g'diylarning vatani Zarafshon daryosi havzasi, Sir va Amudaryo oralig'ida royunlar go'shasida joylashgan bo'lib, G'arb mumtoz adabiyotida So'g'diyona mintaqasi (So'g'diyona) deb ataladi. Uning asosiy hududi: hozirgi O'zbekistondan Tojikiston va Qirg'izistonning bir qismiga to'g'ri keladi. So'g'd viloyatidagi katta-kichik vohalarda turli o'lchamdagi shahar-davlatlar tarqalgan. Ular orasida markazi esa Samarqand bo'lgan, Kangiya davlati eng yirik hisoblanadi. Ko'pincha So'g'd shahar-davlatlarining vakili hisoblanadi. Bundan tashqari, markazi Buxoroda joylashgan Buhara davlati ham nisbatan yirik So'g'd podsholigi edi. Shuningdek, Sutrushana/Ushrusanada Sutrushana davlati, Kaputana /Kedudda orta Sutrushana davlati, Ishitixonda g'arbiy Sutrushana davlati, Maymurgda Merv davlati, Kushanikada Qay davlati, Nakhshabda Kesh /Kash davlati, Shashda Choch davlati va boshqalar mavjud. turli davrlarda bo'lingan va birlashtirilgan bo'lishi mumkin.

Milodiy III asrdan eramizning X asriga qadar ko'p sonli so'g'diylar tadbirkorlik va sovda bilan shug'ullanib, Xitoyga kirib, shaharlar atrofida yoki Ipak yo'li bo'yidagi shaharlar o'rtasida bir qator sug'diy aholi punktlarini qurg'anlar. So'g'diylar bilan birga yana boshqalar urug' vakillari ham Xitoyga kirgan, masalan, toxarlar, turkiylar va boshqalar. Bir paytlar men Xitoy tarixi kitoblarini, turli joylardan topilgan Xitoy va Eron hujjatlarini, Xitoy tosh o'ymakorligi va boshqa materiallarni to'plagan edim, ular Tarim havzasi bo'ylab Tang sulolasining poytaxti Chang'anga yoki Luoyangga kelganlikini tasvirlaydi.

Shuningdek, Shansi va Hebeydan, sharq-shimolida Yingzhou (hozirgi Pekin) mintaqasigacha so'g'd aholi manzilgohlari topilgan. Ushbu aholi manzilgohlarini bir-biriga bog'lab turgan, biz so'g'diylar sharqqa tomon olib borgan Ipak yo'lini aniq belgilashimiz mumkin.

Bu yo'l G'arbiy hududlarning shimoli yo'nalishiga ham cho'zilgan degan taxminlar ham yo'q emas.

So'g'd aholi punktlarining kundalik hayoti va diniy madaniyati.

Xitoy tarixiy hujjatlarini solishtirsak, biz So'g'd manzilgohlaridagi ko'plab real kundalik hayotni yorqin izlarini payqashimiz, shuningdek, ularning dini, madaniy e'tiqodlari haqida ham ma'lumotlarga duch kelishimiz mumkin. Hujjatlarda qayd etilishicha, So'g'd aholi manzillarining rahbari "Sabao" deb atalgan. Bizgacha etib kelgan tarixiy yodgorliklarda, sur'atlarda Sabaoga o'xshagan bosh qahramon bor. U o'rtadagi tosh lavhaga, uyda o'tirib, xotini bilan ziyofat qilayotgani tasvirlangan.



O'ng tomonda uning yuqori qismida turkiy yetakchilar bilan uchrashgani, pastki qismida esa turklar va so'g'dlar ittifoq tuzayotgani tasvirlangan. Tasvirlar orasida Sabaoning so'g'd, turk va xan mehmonlari bilan uchrashishi yoki turkiy, fors va hind qirollarining ov qilayotgani tasvirlari mavjud. Bu Sabaoning xuzuriga dunyoning turli burchaklaridan kelgan mehmonlarni qabul qilishining haqiqiy hayotiy tasviridir. Anga qabridagi tasvirlarda Sabaoning So'g'dlar manzilgohidagi mavqei, ziyofat qilish, ov qilish, mehmon qabul qilish, chet ellarga sayohat qilish kabi kundalik hayot manzaralari juda yorqin aks ettirilgan. Bu sarkofag¹ tasvirlarining deyarli barchasi Xu xalqiga tegishli. Sabao yoki ovga tashrif buyurgan turli mamlakatlarning qirollaridan tashqari, oddiy odamlarning ham ko'zlari chuqur va baland burunlari bor, ba'zilarining sochlari jingalak, ba'zilarining sochlari kalta va barchasi Xu kiyimida bo'lib, bu erda xan xalqi yo'qligini ko'rsatadi. Biroq, Xu xalqining turli xil tasvirlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, So'g'dlar Xu xalqi aholi manzilgohlarida juda ommalashgan, ammo boshqa G'arbiy Hudud Xu xalqi ham bo'lgan.

Ammo Dunxuan hujjatlariga asoslanib "So'g'dlar turar joyi" deb atagan, hamma "So'g'dlar turar joyi" deb atalganini uning sof so'g'd xalqidan tashkil topganligini anglatgan.

¹ Sarkofag-bu tosh, marmar, yog'och yoki boshqa materiallardan yasalgan dafn qutisi (tobut) bo'lib, odatda yuksak martabali kishilar, podshohlar, zadogonlar uchun ishlatilgan.

Tasvir ma'lumotlarida qishloq xo'jaligi mehnati manzaralari deyarli yo'q, bu esa So'g'd aholi punktlarida dehqonchilik hali rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Ushbu sarkofag tasvirlarining o'rtasida qabr egasi va uning rafiqasi ziyofat o'tkazayotgan suratlari bor. So'g'd epitafiyalari² va boshqa hujjatli yozuvlardan ko'rishimiz mumkinki, dastlabki davrlarda Xitoyga kelgan so'g'dliklar ko'pincha Xu xalqi bilan qo'shilib ketishgan. Buning sababi ular avtonom aholi punktlarida yashaganligi va Xan xalqi bilan unchalik aloqada bo'lmaganligidir. Biroq, bu ayollar ko'pincha xitoycha uzun kiyim kiyishadi, bu esa so'g'diylarning Xitoy madaniyatiga bo'lgan e'tiborni ko'rsatadi. Keyingi So'g'd epitafiyalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, so'g'diylar xon ayollariga turmushga chiqa boshlagan. Va natijada mahalliy aholi va so'g'diylarning aralashuvi yuzaga kela boshlagan. Qadimgi Xitoy maqbaralaridan ko'rinib turibdiki, zardushtiylik dafn etish odatlarining aniq ta'siri Xitoyning ba'zi mintaqalarida hali ham mavjud. Bunday dafn etish usuli Xitoyning an'anaviy amaliyoti ham, so'g'diylarning mahalliy ko'rinishi ham emas, bu Xitoyga kirib kelgan so'g'diylarning mahalliy aholi bilan yashash tarzi va madaniyatining qorishib ketganidan darak beradi.³

So'g'dlar, odatda, sharqqa qarab ko'chib, Ipak yo'lining asosiy yo'llari bo'ylab, cho'l ko'chmanchi xonliklari va Markaziy tekisliklar sulolalari orasidagi erlarda aholi punktlari barpo etganlar. Milodiy III asrdan eramizning X asriga qadar Ipak yo'li bo'ylab o'zgargan siyosiy hayotida so'g'diylar turar-joylari muqarrar ravishda turli madaniy ranglar bilan ajralib turardi. Kundalik hayot nuqtai nazaridan biz asosan so'g'd madaniyatini ko'rishimiz mumkin, Eron madaniyati Fors, shimoliy ko'chmanchilar va G'arbiy mintaqalarda boshqa vahshiy madaniyatlar bilan aralashib ketgan. Ma'naviyat nuqtai nazaridan u so'g'diylarning zardushtiylik e'tiqodiga amal qilishda davom etadi, moddiy jihatdan esa Xitoy madaniyati ta'sirini tobora ko'proq qabul qiladi. Aytish mumkinki, so'g'dlar turar-joylarining kundalik hayoti so'g'diylarning Ipak yo'li xalqi sifatidagi xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. So'g'd manzilgohlari ham turli madaniyatlarni o'zida jamladan, ular sharqqa va Xitoyga olib kelingan. O'rta asrlarda Ipak yo'lidagi mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiqqa so'g'diylar mas'ul bo'lgan, deganimizdek, ular aslida turli madaniyatlar o'rtasidagi almashuvning uzatuvchisi bo'lgan.

(Ushbu maqola Rong Xin Jiangning "Ipak yo'li va Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy almashinuvlar" nomli kitobidan olingan)

² Epitafiya-bu qabrtosh yoki yodgorlik ustiga yozilgan matn bo'lib, marhum haqida xotira yoki esdalik yozuvlarini o'z ichiga oladi.

³ Buni Xitoydagi Meixiu san'at muzeyidagi dafn rasmlarining davomi sifatida ko'rish mumkin.